



**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASH**

Safaraliyeva Mehrangis Shamil qizi

Toshkent davlat pedagogika universiteti boshlang'ich ta'lim fakulteti
"Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi" yo'nalishi talabasi, Navoiy nomli
davlat stipendiyasi sovrindori.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8000723>

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchida to'g'ri, tez, ongli ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o'quvchidan teran mulohaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga olib chiqish, o'qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitib, har qanday uslubdagi matnni o'qish va uni anglash, tanqidiy-kreativ fikrlash ko'nikmasini egallash nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarni o'quv-bilim faoliyatiga yaxshilab tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o'z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda bayon qila oladigan shaxsni shakllantirish va takomillashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: Leksikologiya, so'z, nutq, adabiy til, boshlang'ich sinf, lug'at boyligi, ona tili o'qish savodxonligi, faol, nafaol.

So'z tilning ma'no bildiruvchi asosiy birligi sanaladi. So'z va so'z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni, hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo'lgan barcha so'z va iboralarning jamlanmasi lug'at tarkibi yoki leksika deb ataladi. Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganuvchi bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabi turlarini o'rganadi. Shuning uchun leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanib kelgan.

Har qanday nutqiy jumla grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga mos so'z va so'z birikmalarining ma'lum izchillikda joylashganligidan tuziladi. Kishining lug'at boyligi qay darajada boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shu darajada boy bo'ladi, o'z fikrini aniq va ifodali bayon eta oladi. Shuning uchun lug'atning boyligi, xilma-xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim omili hisoblanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilimiz ulkan lug'at boyligiga ega. Besh jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 80000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi berilgan. Bunga o'zbek tilida nashr etilgan turli terminologik lug'atlarda, o'zbek till sinonimlari, antonimlari,





frazeologik lug'atlarida va turli izohli lug'atlarda berilgan so'zlar qo'shilsa, lug'at boyligi yanada oshadi. Bulardan tashqari, juda ko'p so'zlar ko'p ma'noni bildiradi va shu izohli lug'atda bosh so'zining 40 dan ortiq asosiy hamda frazeologizm bilan bog'langan ma'noda ishlatilishi berilgan.

Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirishning muhim vazifalaridan biri lug'at ustida ishlashni takomillashtirish, tartibga solish, uning asosiy yo'nalishlarini ajratish va asoslash, o'quvchilarning lug'atini boyitish jarayonini boshqarish sanaladi. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi to'rt asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarning lug'atini boyitish. Bu yo'nalishda yangi so'zlarni, jumladan, bolalar lug'atida bo'lgan ayrim so'zlarning yangi ma'nolarini o'zlashtirish. Ona tilining lug'at boyligini o'zlashtirish uchun o'quvchi o'z lug'at boyligiga har kuni 8-10 dona yangi so'zni, shuningdek, ona tili darslarida 4-6 dona so'zni qo'shishi, ya'ni shu so'zlar ma'nosini o'zlashtirib olishi lozim.

2. O'quvchilarning lug'atiga aniqlik kiritish. Bu yo'nalish ichiga quyidagilarni oladi:

a) o'quvchi puxta o'zlashtirmagan so'zlarning ma'nosini to'laligicha o'zlashtirishi, ya'ni shu so'zlarni o'z lug'at boyligiga kiritishi, ma'nosi yaqin so'zlarga qiyoslashi, antonim tanlash usullari bilan ularning ma'nosiga aniqlik kiritishi kerak;

b) so'zning kinoyali ma'nosini, ko'p ma'noli so'zlarni o'zlashtirishi kerak;

c) so'zlarning sinonimlarini, sinonim so'zlarning ma'no shakllarini o'zlashtirishi kerak;

d) ayrim frazeologik birliklarning ma'nosini o'zlashtirishi kerak.

3. O'quvchilarning lug'atni faollashtirish. Bu yo'nalishda o'quvchilar ma'nosini tushunadigan, biroq o'z nutqida foydalanmaydigan nafaol lug'atidagi so'zlarni faol lug'atiga o'tkazishi kerak. Buning uchun o'sha so'zlar ishtirokida so'z birikmasi va gaplar tuziladilar, ular o'qiganlarini qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatadilar.

4. Adabiy tilda foydalanilmaydigan so'zlarni o'quvchilarning faol lug'atidan nafaol lug'atiga o'tkazish. Bu yo'nalishda bunday so'zlarga bolalarning nutqida muhit ta'sirida o'zlashib qolgan adabiy til me'yoriga kirmaydigan, ayrim adabiy asar va so'zlashuv tilida foydalaniladigan sodda so'z va iboralar, sheva va ijtimoiy guruhga oid so'zlar kiradi. Adabiy til me'yori degan tushunchani o'zlashtirgach, o'quvchilar yuqorida izohlangan so'zlar o'rniga adabiy tildagi so'zlardan ishlatib boshlaydilar. Adabiy tilga oid malakalari mustahkamlangan sayin shevaga, jargonga oid so'zlar, so'zlashuv tilida



qo'llaniladigan sodda so'z va iboralar o'quvchilarning faol lug'atidan chiqib keta boshlaydi. Atrofni o'rab olgan muhitni: tabiatni, kishilarning hayoti va mehnat faoliyati, bolalarniig o'yini va o'qish faoliyatini, kattalar bilan munosabatni kuzatish tufayli ham o'quvchilarning lug'at boyligi takomillashib boradi. Tabiat qo'yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarni kuzatish bilan birga ko'pgina yangi nom va iboralari o'rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o'tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi takomillashtiriladi, ayrim so'zlar ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilar lug'atini va nutqini boyitishda eng ishonarli manba badiiy asarlar sanaladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida, boshqa kitoblarda o'quvchilar Oybek, H. Olimjon, M. SHayxzoda, G.G'ulom, H. Hakimzoda, Zulfiya, Uyg'un, A.Qahhor, P. Mo'min, Q. Muhammadiy, SH. Sa'dulla, Z. Diyor kabi ko'pgina so'z ustalarining asarlarini o'qiydilar. o'zbek tilini yuksak badiiy obrazlar yordamida o'rganadilar. Ona tili va o'qish savodxonligi darsida bolalar lug'ati ma'lum mavzularga oid so'zlar hisobiga ham boyiydi. Ular lug'atiga axloqiy tushunchalarni ifodalovchi yoqimtoy, shirinso'z, mehribon, haqqoniy, botir, mard, jasur, mehnatsevar kabi ko'pgina so'zlar qo'shiladi. Matn ustida ishlash jarayonida ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, ko'chma ma'noda foydalaniladigan so'zlarni, ba'zi frazeologik birikmalarni bilib oladilar. Bolalar mustaqil o'qishga o'tganlaridan keyin ular lug'atiga kitob, gazeta, jurnal materiallari katta ta'sir qila boshlaydi. Shu sababli ham sinfdan tashqari mustaqil o'qish va unga rahbarlik shakllari o'quvchilar lug'atini boyitishning, nutqini o'stirishning eng asosiy manbalaridan sanaladi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida maxsus mashqlar yordamida grammatika va imloni o'rganish darslari ko'pgina so'z va atamalarni tushunishga yordam beradi, o'quvchilar predmet, belgi, harakat, sanoq, tartib ifodalaydigan so'zlarni bilib oladilar. Bu darslarda o'quvchilar lug'at boyligi tartibga solinadi, so'z turkumlarini o'rganish jarayonida guruhlanadi, so'z tarkibi, so'z yasalishi, so'zlarning o'zgarishini o'rganish bilan esa lug'atga aniqlik kiritiladi; ular o'rgangan so'zlaridan o'z nutqlarida qo'llay boshlaydilar, buning natijada lug'atlari faollashadi. o'quvchilar lug'ati maxsus lug'aviy-mantiqiy mashqlar yordamida ham boyib faollashadi, tartibga keladi. Bulardan tashqari, kinofilm, radio, televizor eshittirish matnlari, o'qituvchi va boshqa maktab hamda maktabdan tashqari muassasalar xodimlarining nutqlari ham o'quvchilar lug'atini boyitish va takomillashtirishda asosiy manbalardan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida so'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'sishiga sabab





bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamaları ham tushuntirilishi kerak bo'lgan so'zlar sirasiga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deb atalishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez anglab olishda ularga yordam beradi. So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itib, ko'p vaqtni olmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlari, uni tushuntirishning eng qulay yo'llarini va darsning qaysi o'rinida tushuntirishni belgilab oladi. Ona tili va o'qish savodxonligi kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish kerak bo'lib qolsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan shaklda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntirib beriladi. Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq oborotlari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan yaxshi tushuniladi. Ayniqsa, masallar o'qilganda undagi allegorik, ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlari asarni o'qishdan oldin yoki o'qish jarayonida tushuntirilmaydi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darolarida so'zlarni ma'nosini tushuntirishning ushbu shakllaridan foydalaniladi:

1. So'zni kontekst asosida tushuntirish. Bunda o'quvchilar tushunmaydigan so'z ularga tushunarli so'zlar (asosan ma'nodoshlar so'zlar) yordamida tushuntiriladi.
2. So'z ma'nosini lug'atdan hamda ona tili va o'qish savodxonligi kitoblarida matn ostida berilgan so'zlardan foydalanib tushuntirish. Bunda o'quvchilarni izohdan mustaqil foydalanib, so'z ma'nosini mustaqil tushunib olishlariga o'rgatish muhim ahamiyatlidir.
3. So'z ma'nosini shu so'zning ma'nodoshi yordamida tushuntirish. Masalan, sabo-shabada, mudofaa - himoya, sozanda - musiqachi, diyor - vatan, inshoot-bino, samo-osmon kabi. Matndagi so'zni sinonim tanlash bilan tushuntirganda, shu so'zning stilistik (uslubiy) ahamiyatini ham ko'rsatish zarur sanaladi.
4. Notanish so'z bilan ifodalangan tushunchani tanish bo'lgan so'z bilan ifodalangan tushunchaga (uning antonimiga) taqqoslash orqali tushuntirish. Masalan, Ishchan tushunchasini dangasa tushunchasiga, rostgo'y so'zini





yolg'onchi so'ziga taqqoslagan holda tushuntirish mumkin. Ko'chma ma'noda ishlatilgan so'z va so'z birikmalari, tasviriy vositalar, maqollar ham taqqoslash usulidan foydalanib tushuntiriladi.

5. So'zni o'ziga yaqin ma'nodagi tushuncha bilan, ya'ni boshqacha ma'nodagi so'z orqali ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi lozim. Masalan, o'zboshimchalik - o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis - biror hunar egasi; shunqor - uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh - mol terisidan tikilgan idish; guldon-gul solib qo'yiladigan idish va boshq. Ba'zi so'zlar ularning vazifasini izohlash orqali tushuntiriladi. Masalan, kombayn - bir vaqtning o'zida donni o'radigan, yanchadigan, tozalaydigan qishloq xo'jalik mashinasi va hok.

6. So'zni predmetning asosiy belgisini izohlash bilan tushuntirish. Masalan, yantoq - suvsiz joyda o'sadigan, ninasimon tikanli o'simlik; akula - okeanlarda yashovchi juda katta yirtqich baliq va boshq.

7. Axloqiy, mavhum tushunchalarni bildiruvchi so'zlarning ma'nosini misollar yordamida tushuntirish. Buning uchun o'quvchilar o'rgangan badily asardan axloqiy fazilatga ega bo'lgan asar qahramonining bajargan ishlari tahlil qilinadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash, so'z ma'nosini tushuntirish ustida ishlash o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini ravonlashtiradi. Har bir o'qituvchi lug'at ustida ishlash jarayonida mas'uliyat bilan har bir so'zning ma'nosini avvali o'zi tushungan holda o'quvchiga yetkaza olishi kerak, shundagina o'quvchilar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida to'g'ri ishlay olishadi, har bir so'zni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boshlang'ich sinflarning takomillashtirilgan davlat ta'lim Standarti. boshlang'ich ta'lim jurnali. 2006. 5-son.
2. Boshlang'ich ta'lim takomillashtirilgan O'quv dasturi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali. 2006. 5-son
3. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya", 2003 172 b.
4. R.Jo'ruev, A.Zunnunov. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalash. T. "Sharq". 2005. 80 b.
5. T.G'afforova "Boshlang'ich ta'linda zamonaviy pedagogik texnologiyalarlar". T. "Tafakkur" 2011-yil 6. O'zbek tilining izohli lug'ati, IV-jildlar. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2005 2010-yillar.

